

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2023- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 3 893,9 mlrd. soʻmni (AQSh dollari ekvivalentidagi hajmi 0,34 mlrd. AQSh dollarini) yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 132,3 %ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kiritilgan investitsiyalar hajmi

(2023- yil yanvar- mart)

| Shahar va tumanlar | Umumiy hajm | | Aholi jon boshiga | |
|---------------------|-------------|---------------------|-------------------|---------------------|
| | mlrd. soʻm | oʻsish surʼati, %da | ming. soʻm | oʻsish surʼati, %da |
| Viloyat jami | 3 893,9 | 132,3 | 977,0 | 129,6 |
| shaharlar: | | | | |
| Fargʻona | 1 104,9 | 193,8 | 3 502,1 | 184,3 |
| Qoʻqon | 188,0 | 68,8 | 617,8 | 58,8 |
| Quvasoy | 107,6 | 64,2 | 1 085,8 | 62,9 |
| Margʻilon | 272,0 | 185,7 | 1 100,3 | 182,5 |
| tumanlar: | | | | |
| Oltiariq | 188,0 | 183,0 | 838,2 | 179,2 |
| Qoʻshtepa | 211,0 | 91,9 | 1 033,8 | 89,5 |
| Bagʻdod | 125,2 | 118,0 | 547,9 | 115,6 |
| Buvayda | 78,6 | 156,8 | 324,7 | 153,2 |
| Beshariq | 125,3 | 101,6 | 524,7 | 99,9 |
| Quva | 216,3 | 256,6 | 797,6 | 2,5 m. |
| Uchkoʻprik | 163,1 | 87,7 | 689,1 | 88,1 |
| Rishton | 197,3 | 173,9 | 927,6 | 170,7 |
| Soʻx | 35,4 | 127,9 | 430,7 | 125,4 |
| Toshloq | 200,8 | 77,5 | 934,8 | 75,9 |
| Oʻzbekiston | 145,6 | 77,4 | 630,0 | 82,7 |
| Fargʻona | 198,7 | 166,0 | 913,6 | 169,0 |
| Dangʻara | 201,8 | 216,3 | 1 165,1 | 2,3 m. |
| Furqat | 44,1 | 88,5 | 353,6 | 86,6 |
| Yozyovon | 90,2 | 167,3 | 767,7 | 163,8 |


2023- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi, yaʼni 28,4 %ni viloyatning Fargʻona shahrida, Margʻilon shahrida -7,0 %, Quva tumanida - 5,6 % oʻzlashtirildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Qator tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, jumladan Quva tumanida – 256,6 % (216,3 mlrd. so'm), Dang'ara tumanida – 216,3 % (201,7 mlrd. so'm), Farg'ona shahrida – 193,8 % (1104,9 mlrd. so'm) va Marg'ilon shahrida – 185,7 % (272,0 mlrd. so'm).

2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga



2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahrida – 3 502,1 ming so'm (yoki 2022- yilga nisbatan 184,3 %), Dang'ara tumanida – 1 165,1 ming so'm (226,3 %), Marg'ilon shahrida – 1 100,3 ming so'm (yoki 182,5 %) qayd etildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


(2023- yil yanvar - mart)

| | mlrd. so'm | o'sish sur'ati, %da | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|---|----------------|---------------------|------------------------------|
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 3 893,9 | 132,3 | 100,0 |
| shu jumladan | | | |
| Markazlashgan investitsiyalar: | 506,7 | 4,9 m. | 13,0 |
| Respublika byudjeti | 420,9 | 11,4 m. | 10,8 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi | - | - | - |
| Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | 34,7 | 2,4 m. | 0,9 |
| Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar | 51,1 | 96,6 | 1,3 |
| Markazlashmagan investitsiyalar: | 3 387,2 | 118,9 | 87,0 |
| korxonalarining o'z mablag'lari | 1 004,1 | 2,7 m. | 25,8 |
| aholi mablag'lari | 693,1 | 132,7 | 17,8 |
| to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar | 1 133,1 | 66,6 | 29,1 |
| tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | 556,9 | 2,3 m. | 14,3 |

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta'minot tizimini qo'llab quvvatlashga, Farg'ona viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari

(yanvar-mart umumiy hajmga nisbatan, %da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari


(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, %da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobida 2022- yilga nisbatan 4,9 m. yoki 506,7 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmining 13,0 % ulushiga teng) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari


(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, %da)




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2022- yilga nisbatan 118,9 % yoki 3 387,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmining 87,0 % ulushiga teng) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan jami investitsiyalardagi tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, o'sish sur'ati %da





Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 506,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 486,0 %ni tashkil etib (umumiy hajmdagi ulushi 13,0 %), shundan byudjet mablag'lari 420,9 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4 m. tashkil etib, (umumiy hajmdagi ulushi 10,8 %), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 34,7 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 238,9 % ni tashkil etdi. (umumiy hajmdagi ulushi 0,9 %) O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 51,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 %ni tashkil etganini ta'kidlash lozim. (umumiy hajmdagi ulushi 1,3 %). Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 3 387,2 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,9 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 87,0 %) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng ko'p ulush to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri kelib, 1 133,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,6 %ga oshgan (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 29,1 %), korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 1 004,1 mlrd. so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 267,5 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 25,8 %) tashkil etdi, 693,1 mlrd. so'm aholi mablag'lari hisobiga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,7 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 17,8 %) tashkil etdi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 556,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 226,4 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 14,3 %) tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo'yicha tarkibi**
(2023-yil yanvar-mart)

| | <i>Jami investitsiyalar mlrd. so'm</i> | <i>Shundan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (mlrd. so'm)</i> | | | | | |
|--|--|--|---|---|-----------------------|---|---|
| | | <i>Respublika byudjeti</i> | <i>Tiklanish va Taraqqiyot fondi va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish</i> | <i>Korxonalar va mahalliy byudjet</i> | <i>Aholi mablag'i</i> | <i>Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari</i> | <i>Chet el investitsiya- lari va kreditlari</i> |

| | | | | | | | |
|----------------------|---------------|--------------|-------------|---------------|--------------|--------------|---------------|
| Viloyat jami | 3893,9 | 420,9 | 34,7 | 1004,1 | 693,1 | 556,9 | 1184,2 |
| Farg'ona sh. | 1104,9 | 156,9 | 19,8 | 446,5 | 103,8 | 216,6 | 161,3 |
| Qo'qon sh. | 188,0 | 7,0 | | 42,1 | 62,7 | 7,8 | 68,4 |
| Quvasoy sh. | 107,6 | 10,9 | | 30,6 | 8,4 | 28,3 | 29,4 |
| Marg'ilon sh. | 272,0 | 3,8 | | 54,6 | 81,9 | 60,5 | 71,2 |
| Oltiariq | 187,9 | 36,5 | 0,9 | 54,2 | 30,6 | 22,9 | 42,8 |
| Qo'shtepa | 211,0 | 17,0 | | 2,5 | 53,0 | 0,1 | 138,4 |
| Bag'dod | 125,2 | 17,1 | | 40,0 | 25,2 | 6,9 | 36,0 |
| Buvayda | 78,6 | 3,4 | | 28,1 | 21,6 | 6,9 | 18,6 |
| Beshariq | 125,3 | 9,8 | | 14,7 | 19,1 | 2,0 | 79,7 |
| Quva | 216,3 | 11,0 | | 28,2 | 77,5 | 42,9 | 56,7 |
| Uchko'prik | 163,1 | 8,5 | | 19,4 | 21,0 | 9,2 | 105,0 |
| Rishton | 197,3 | 34,7 | 0,6 | 97,1 | 12,6 | 0,0 | 52,3 |
| So'x | 35,5 | 0,9 | 3,7 | 17,3 | 9,8 | 3,8 | 0,0 |
| Toshloq | 200,9 | 19,0 | | 19,9 | 45,0 | 58,1 | 58,9 |
| O'zbekiston | 145,6 | 10,3 | 1,9 | 18,1 | 13,8 | 4,7 | 96,8 |
| Farg'ona | 198,7 | 42,6 | | 41,5 | 25,8 | 9,0 | 79,8 |
| Dang'ara | 201,7 | 15,9 | | 15,6 | 52,6 | 69,7 | 47,9 |
| Furqat | 44,1 | 3,6 | | 13,8 | 8,1 | 3,0 | 15,6 |
| Yozyovon | 90,2 | 12,0 | 7,8 | 19,9 | 20,6 | 4,5 | 25,4 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

(2023- yil yanvar-mart)

| Shahar va tumanlar | Jami mlrd. so‘m | Shu jumladan, % | | |
|----------------------|-----------------|-------------------------|---|-------------------|
| | | Qurilish montaj ishlari | Mashinalar, asbob-uskunlar, inventarlar | Boshqa harajatlar |
| Viloyat jami: | 3893,9 | 54,2 | 38,6 | 7,2 |
| Farg‘ona sh. | 1104,9 | 42,4 | 53,9 | 3,7 |
| Qo‘qon sh. | 188,0 | 66,3 | 30,2 | 3,5 |
| Quvasoy sh. | 107,6 | 47,2 | 44,5 | 8,3 |
| Marg‘ilon sh. | 272,0 | 54,4 | 40,6 | 5,0 |
| Oltiariq | 187,9 | 36,8 | 58,0 | 5,2 |
| Qo‘shtepa | 211,0 | 69,8 | 28,6 | 1,6 |
| Bag‘dod | 125,2 | 55,4 | 38,1 | 6,5 |
| Buvayda | 78,6 | 54,7 | 37,7 | 7,6 |
| Beshariq | 125,3 | 34,1 | 19,1 | 46,8 |
| Quva | 216,3 | 50,3 | 46,2 | 3,5 |
| Uchko‘prik | 163,1 | 59,9 | 23,0 | 17,1 |
| Rishton | 197,3 | 88,0 | 10,0 | 2,0 |
| So‘x | 35,5 | 66,9 | 20,1 | 13,0 |
| Toshloq | 200,9 | 50,5 | 42,5 | 7,0 |
| O‘zbekiston | 145,6 | 63,2 | 12,6 | 24,2 |
| Farg‘ona t. | 198,7 | 59,3 | 33,2 | 7,5 |
| Dang‘ara | 201,7 | 78,1 | 18,8 | 3,1 |
| Furqat | 44,1 | 44,0 | 39,8 | 16,2 |
| Yozyovon | 90,2 | 62,5 | 34,0 | 3,5 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi
(2023- yil yanvar-mart)

| Shahar va tumanlar | Jami mlrd. so‘m | Shu jumladan, % | | |
|----------------------|-----------------|-----------------|--|-------------------|
| | | Yangi qurilish | Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish | Boshqa harajatlar |
| Viloyat jami: | 3893,9 | 58,6 | 23,6 | 17,8 |
| Farg‘ona sh. | 1104,9 | 41,7 | 31,2 | 27,1 |
| Qo‘qon sh. | 188,0 | 71,2 | 16,2 | 12,6 |
| Quvasoy sh. | 107,6 | 28,4 | 56,4 | 15,2 |
| Marg‘ilon sh. | 272,0 | 37,4 | 38,1 | 24,5 |
| Oltiariq | 187,9 | 32,5 | 38,2 | 29,3 |
| Qo‘shtepa | 211,0 | 96,6 | 1,5 | 1,9 |
| Bag‘dod | 125,2 | 49,5 | 18,2 | 32,3 |
| Buvayda | 78,6 | 31,4 | 56,0 | 12,6 |
| Beshariq | 125,3 | 84,7 | 7,5 | 7,8 |
| Quva | 216,3 | 48,6 | 17,8 | 33,6 |
| Uchko‘prik | 163,1 | 59,4 | 27,9 | 12,7 |
| Rishton | 197,3 | 86,8 | 10,6 | 2,6 |
| So‘x | 35,5 | 63,9 | 29,0 | 7,1 |
| Toshloq | 200,9 | 83,3 | 12,5 | 4,2 |
| O‘zbekiston | 145,6 | 83,4 | 9,3 | 7,3 |
| Farg‘ona t. | 198,7 | 83,8 | 6,3 | 9,9 |
| Dang‘ara | 201,7 | 79,5 | 12,3 | 8,2 |
| Furqat | 44,1 | 66,5 | 17,0 | 16,5 |
| Yozyovon | 90,2 | 61,9 | 31,8 | 6,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar


| | 2023- yil yanvar-mart | | | |
|--|------------------------------|----------------------------|--|----------------------------|
| | Jami investitsiya mlrd. so'm | Umumiy hajmga nisbatan %da | shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar | |
| | | | mlrd. so'm | Umumiy hajmga nisbatan %da |
| Jami : | 3 893,9 | 100,0 | 1 184,2 | 100,0 |
| shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 465,1 | 11,9 | 106,2 | 9,0 |
| tog'-kon sanoati | 14,4 | 0,4 | - | - |
| qayta ishlash sanoati | 1 412,1 | 36,3 | 906,8 | 76,6 |
| elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 51,9 | 1,3 | 9,7 | 0,8 |
| suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 245,1 | 6,3 | - | - |
| qurilish | 393,2 | 10,1 | - | - |
| ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash | 312,2 | 8,0 | 46,1 | 3,9 |
| tashish va saqlash | 411,0 | 10,6 | 75,8 | 6,4 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 21,4 | 0,5 | 11,2 | 0,9 |
| axborot va aloqa | 25,2 | 0,6 | 19,3 | 1,6 |
| moliyaviy va sug'urta faoliyati | 6,7 | 0,2 | - | - |
| professional, ilmiy va texnik faoliyat | 27,7 | 0,7 | - | - |
| ta'lim | 73,4 | 1,9 | - | - |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 26,9 | 0,9 | 9,1 | 0,8 |
| boshqa iqtisodiy faoliyat | | | | |
| turlaridan tashqari: turar - joy binolari qurilishiga investitsiyalar | 323,2 | 8,3 | - | - |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 5,7 | 0,1 | - | - |
| boshqa faoliyat turlari | 1490,8 | 1,9 | - | - |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 465,1 mlrd. so'mlik (jami investitsiyalar hajmida 11,9 %), tog'-kon sanoatida – 14,4 mlrd. so'mlik (0,4 %), qayta ishlash sanoatida – 1 412,9 mlrd. so'mlik (36,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 51,9 mlrd.so'mlik (1,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilinishida 245,1 mlrd.so'mlik (6,3%), qurilish uchun – 393,2 mlrd.so'mlik (10,1 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash – 312,2 mlrd.so'mlik (8,0 %), tashish va saqlash uchun – 411,0 mlrd. so'mlik (10,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga 21,4 mlrd. so'mlik (0,5 %), axborot va aloqa – 25,2 mlrd. so'mlik

(0,6 %), moliyaviy va sug'urta faoliyatida 6,7 mlrd. so'mlik (0,2 %), ta'lim bo'yicha - 73,4 mlrd. so'mlik (1,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 26,9 mlrd so'mlik (0,7 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari - turar joy binolari qurilishiga – 323,2 mlrd. so'mlik (8,3 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olish 5,7 mlrd so'mlik (0,1 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Kiritilgan investitsiyalarda katta ulushga ega bo'lgan sohalar

(yanvar-mart holatiga, %da)



Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar


2023-yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 1 184,2 mlrd. so'm bo'lib 104,4 mln. AQSh dollari yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 67,5 %ga o'sdi. Jami xorijiy investitsiyalar 623,0 mlrd. so'm bo'lib, 54,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan 617,2 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'lib, 54,4 mln. AQSh dollarini, boshqa xorijiy investitsiyalar 5,8 mlrd.so'm bo'lib, 0,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Jami xorijiy kreditlar 561,2 mlrd.so'm bo'lib, 49,5 mln. AQSh dollarni, shundan 51,1 mlrd. so'm Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar bo'lib 4,5 mln. AQSh dollarini, kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 510,1 mlrd. so'm bo'lib 45,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi
(2023- yil yanvar-mart)

| | mlrd.so‘m | shu jumladan: | |
|---|----------------|------------------------|---------------------------------|
| | | davlat kafolati ostida | to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqalar |
| Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar | 1 184,2 | 51,1 | 1 133,1 |
| shu jumladan: | | | |
| davlat | 15,8 | 15,8 | - |
| nodavlat | 1 168,4 | 35,3 | 1133,1 |

Hisobot davrida Farg‘ona viloyati bo‘yicha to‘g‘ridan - to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar 1 178,4 mlrd.so‘mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi nodavlat sektoriga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar 1 168,4 mlrd. so‘m bo‘lib, bu hajm jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 98,7 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(yanvar-mart, umumiy hajmga nisbatan, %da)




Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha salmoqli qismining o‘zlashtirilishi qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri kelib – 906,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami xorijiy

investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi – 76,6 %ni, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 9,1 mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 0,8 %ni, hamda ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash esa 46,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 3,9 %ni, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarga 11,2 mlrd. so‘mlik (0,9 %), axborot va aloqa – 19,3 mlrd. so‘mlik (1,6 %), o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 106,2 mlrd. so‘mlik (9,0 %) tashkil etdi. Ushbu iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘zlashtirilishi 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ortganligi kuzatildi.

Qurilish faoliyati

2023- yil yanvar-mart oylarida 1 720,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari umumiy hajmini ko‘radigan bo‘lsak, Farg‘ona shahrida, 397,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi, jami qurilish ishlari hajmining 23,1 % (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,2 %)ni tashkil etdi. Qo‘qon shahrida 194,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 11,3 % (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,5 %)ni, Quvasoy shahrida 50,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi, (jami qurilishdagi ulushi 2,9 %, o‘shish sur‘ati 113,0 %)ni, Marg‘ilon shahrida 242,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 14,1 %, o‘shish sur‘ati 98,4 %), Oltiariq tumanida 47,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,8 %, o‘shish sur‘ati 104,5 %), Qo‘sh tepa tumanida 78,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 4,5 %, o‘shish sur‘ati 91,4 %), Bag‘dod tumanida 169,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 9,9 %, o‘shish sur‘ati 100,3 %), Buvayda tumanida 73,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 4,3 %, o‘shish sur‘ati 83,3 %), Beshariq tumanida 32,3 mlrd.


soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,9 %, oʻsish surʼati 125,6 %), Quva tumanida 65,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,8 %, oʻsish surʼati 133,2 %), Uchkoʻprik tumanida 39,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,3 %, oʻsish surʼati 94,5 %), Rishton tumanida 29,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,7 %, oʻsish surʼati 91,8 %), Soʻx tumanida 20,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,2 %, oʻsish surʼati 81,2 %), Toshloq tumanida 57,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,3 %, oʻsish surʼati 94,2 %), Oʻzbekiston tumanida 18,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,1 %, oʻsish surʼati 34,3 %), Fargʻona tumanida 65,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,8 %, oʻsish surʼati 302,8 %), Dangʻara tumanida 85,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 5,0 %, oʻsish surʼati 163,2 %), Furqat tumanida 24,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,4 %, oʻsish surʼati 75,5 %), Yozyovon tumanida 27,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,6 %, oʻsish surʼati 56,0 %).

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi

| | Yanvar–mart | |
|-------------------------------------|----------------|----------------|
| | 2022- yil | 2023- yil |
| Qurilish ishlari, mlrd. soʻm | 1 570,2 | 1 720,1 |
| shu jumladan: | | |
| davlat | 21,2 | 77,1 |
| nodavlat | 1 549,0 | 1 643,0 |

Qurilish ishlarini mulkchilik shakllari boʻyicha koʻrinishi

(yanvar-mart, umumiy hajmga nisbatan, %da)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1 643,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 95,5 %ni tashkil qildi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 77,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 4,5 %ni tashkil qildi. Qurilish ishlari umumiy hajmining 70,1 %ni yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga 29,9 %ni esa kapital, joriy taʼmirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga toʻgʻri keldi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

| | <i>2022- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i> | <i>2023- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i> | <i>O‘tgan yilga nisbatan, % da</i> | <i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i> |
|---------------------|---|---|--|---|
| Viloyat jami | 1 570,2 | 1 720,1 | 104,5 | 100,0 |
| Farg‘ona sh. | 330,9 | 397,3 | 115,2 | 23,1 |
| Qo‘qon sh. | 169,4 | 194,2 | 109,5 | 11,3 |
| Quvasoy sh. | 43,2 | 50,7 | 113,0 | 2,9 |
| Marg‘ilon sh. | 236,4 | 242,4 | 98,4 | 14,1 |
| Oltiariq | 42,7 | 47,8 | 104,5 | 2,8 |
| Qo‘shtepa | 82,2 | 78,2 | 91,4 | 4,5 |
| Bag‘dod | 163,3 | 169,8 | 100,3 | 9,9 |
| Buvayda | 84,5 | 73,7 | 83,3 | 4,3 |
| Beshariq | 24,0 | 32,3 | 125,6 | 1,9 |
| Quva | 46,1 | 65,9 | 133,2 | 3,8 |
| Uchko‘prik | 39,6 | 39,6 | 94,5 | 2,3 |
| Rishton | 30,2 | 29,3 | 91,8 | 1,7 |
| So‘x | 23,7 | 20,3 | 81,2 | 1,2 |
| Toshloq | 56,4 | 57,3 | 94,2 | 3,3 |
| O‘zbekiston | 51,2 | 18,7 | 34,3 | 1,1 |
| Farg‘ona t. | 20,4 | 65,2 | 3,0 m. | 3,8 |
| Dang‘ara | 50,6 | 85,9 | 163,2 | 5,0 |
| Furqat | 30,2 | 24,1 | 75,5 | 1,4 |
| Yozyovon | 45,2 | 27,4 | 56,0 | 1,6 |

Farg‘ona viloyatida 2023- yil yanvar-mart oylarida sektorlar kesimida qurilish ishlari hajmlari ko‘rsatkichlari

| | |
|--------------------------------------|--|
| Yirik pudrat tashkilotlari | <ul style="list-style-type: none">• hajmi - 286,1 mrd. so‘m• o‘<u>sish</u> sur‘ati - 121,0 %. |
| Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar | <ul style="list-style-type: none">• hajmi - 1 008,9 mrd. so‘m• o‘<u>sish</u> sur‘ati- 108,6 % |
| Norasmiy sektor | <ul style="list-style-type: none">• hajmi - 425,1 mrd. so‘m• o‘<u>sish</u> sur‘ati - 87,5 % |

Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 16,6 % yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 %ga ko‘paydi. Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 58,7 % (1,2 %ga ko‘paydi) va norasmiy sektorning ulushi 24,7 % (3,2 %ga kamaydi) ni tashkil etdi. Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurilishi bo‘yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 11,4 %ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,0 %ga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 86,6 %ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 %ga ko‘paydi. Norasmiy sektorning ulushi 2,0 % (1,9 %ga ko‘paydi) ni tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga ko‘paydi va 17,4 %ni tashkil etdi. Qolgan 82,6 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib 2022- yilning yanvar-mart oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.